

## O`ZBEKISTON TASVIRIY SAN`ATIDA BADIY JARAYON

*Umirova Nilufar*

*Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institute*

*70211003-Dastgohli rang tasvir mutaxassisligi*

*1-kurs magistranti*

**Annotatsiya.** Maqolada O`zbekistonning mustaqillikka erishgani sharofati bilan milliy tasviri san`atni rivojlantirish, ma`naviyat va ma`rifatni yuksaltirish, tasviri san`atning badiiy jarayon sifatida yuksalishi masalalari muhokama etiladi.

**Kalit so‘zlar:** Tasviri san`at, badiiy jarayon, metod, chizma.

### **KIRISH**

Ma'lumki, har bir millatning taraqqiyoti uning madaniyati va san`ati darajasi bilan belgilanadi. O`z navbatida, davlatning madaniyat va san`atga bo`lgan munosabati jamiyatning rivojlanish darajasini aniqlaydi. O`zbekiston mustaqillikka erishgan tarixiy damlarda o`z davri va tomoshabini bilan jonli, millat hayotining muhim bo`g`inlarida kechayotgan islohotlar jarayonini, mavjud muammolarni mo`ljalga ola bilish imkoniyati san`atni ijtimoiy hayotning oldingi qatoriga ko`tarib chiqara boshladi.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL**

Mustaqillik qo`lga kiritilgandan so`ng shaxsiy uslubning, boshqacha plastik ifoda tili, alohida tashbehli usullar va timsollar doirasida izlanishlar dunyoga keldi. Buning ustiga avvalgi san`at falsafasidan farqli o`laroq, turli yoshdagi rassomlar ijodida bir-biriga o`xshamagan uslublar yaratishga intilish ishtiyoqi seziladi. Yangi tasviri sanatdagi falsafiy-ijodiy munosabatda an`anaviy pand-nasihatdan ko`ra, ko`proq faol mushohada qilish yodga solinadi. O`zbekistonda yangi ma`naviy-g`oyaviy yo`nalishlarning shakllanishi o`z navbatida, zamonaviy san`atning barcha sohalariga samarali ta`sir etib, ijodiy izlanishlar doirasini kengaytirib, badiiy tafakkur rivojini yanada jadallashtirdi. Tarixiy, madaniy va ma`naviy-ahloqiy qadriyatlarning keng

qatlamlarini qayta idrok etish g‘oyalari, yangilanish tamoyillari me’morlik, tasviriy va amaliy bezak sohalarida, musiqa va tomosha san’atlarida, badiiy va hujjatli kino hamda, televideenie tizimida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Tasviriy san’at o‘ziga xos uslublarda rivojlanib borish natijasi tufayli O‘zbekistonda shakllangan bugungi zamonaviy ilg‘or an’analar hayotimizga allaqachon kirib borgan bo‘lib, u keng ko‘lamda taraqqiy etmoqda. O‘zbekiston zamonaviy tasviriy san’ati tarixiy, milliy va innovatsion izlanishlar, turli uslub va yo‘nalishlarni mujassamlashtirgan o‘ziga xos ma’naviy makondir. O‘zbekiston zamonaviy badiiy madaniyatining tarkibiy qismi bo‘lgan ushbu san’atning ham ildizi uzoq o‘tmish bilan bog‘langan, tarixiy- madaniy an’analardan oziqlanadi. Zamonaviy tasviriy san’atda avvalgi davrda erishilgan yutuqlarni yanada boyitishga intilish kuzatiladi. Mustaqillik yillarida tarixiy-madaniy merosga, noyob badiiy an’analarga, moddiy va madaniy yodgorliklarga jiddiy e’tibor qaratilib, ularni milliy qadriyat sifatida asrab-avaylash va o‘rganish kuchaygani tufayli kishilarning dunyoqarashi beqiyos o‘zgardi.

Zamonaviy tasviriy san’at ijodi bir- biriga o‘xshamagan iste’dodli rassomlardan iborat rang-barang mozaikaga o‘xshaydi. Turli badiiy maktab, yo‘nalishlarda ijod qilayotgan O‘zbekiston rassomlari asarlari o‘zbek madaniyatining milliy o‘ziga xosligini namoyon etadi. Ba’zi rassomlar ijodida uzoq asrlardan o‘tib kelayotgan milliy belgilarni ko‘rsatish asosiy o‘rin tutsa, ayrim musavvirlarning asarlarida nafaqat o‘tgan davr tajribalari, balki XX asr dunyo badiiy amaliyotida va zamonaviy voqelikda tug‘ilgan yangi hodisalarni aks ettirishga ko‘proq e’tibor qaratiladi. Tasviriy san’atda badiiy jarayon birmuncha shiddatli va serharakat kechdi. 1991 yillardan to bugungi kungacha bo‘lib o‘tgan ko‘p sonli ko‘rgazmalar shuni tasdiqlaydiki, mazkur davr rangtasviri uslub va kompozitsion yechimining turli-tumanligi bilan alohida ajralib turadi. Bu esa tasviriy sanatda ijodiy erkinlik, shuningdek, badiiy tasvirni yaratishda shakl va vositalarni mustaqil tanlash imkonini yaratuvchi yangi davrga ko‘p jihatdan bog‘likdir. Umuman olganda, izlanish ishlari olib borilayotgan mazkur davrda O‘zbekiston tasviriy sanatining zamonaviy yo‘nalishi rivojlanishning yangi qobig‘iga kirdi va zamonaviy tasviriy sanatning yor- qin badiiy jihatlaridan biri bo‘lib qoldi.

V.Oxunov, S.Alibekov, G'.Boymatov, L.Ibragimov, A.Isaev, Z.Saidjonov, V.Kim, J.Usmonov, G'.Qodirov, N.Imomov, A.Turdiev, F.Ahmadaliev, R.Akromov, Sh.Hakimov, M.Qoraboev, T.Ahmedov, B.Muhamedov, B.Ismoilov, N.Shoabduraximov, T.Karimov, Sh.Abdumalikov va bir qator boshqa rassomlar ijodida falsafiy-tahliliy va assotsiativ-majoziy yo‘nalishlar o‘zining to‘la aksini topdi. Shu bilan birga tahlil mobaynida ushbu rasso-mlarning ijodiga alohida baho berishda o‘ziga xos yondashilib, mavjud umumiyo‘nalishga xos alohida xususiyatlar bilan birga, ularning har birining shaxsiy uslubi hamda rangtasvirni ko‘ra bilish qobiliyatiga ega ekanliklari to‘la namoyon bo‘ldi. Tom ma’noda ularni avangardchilar deyish mumkin bo‘lmaseda, aynan shu guruh rassomlari O‘zbekistonning 90-yillardagi tasviriy sanatining yangi uslubiyatini vujudga kelishida asosiy o‘rin egalladilar. Ko‘pgina rassomlarning dunyoqarashlari o‘zgardi, rangtasvirda yangi badiiy shakl va g‘oyalar paydo bo‘ldi. Ko‘k otlarni (T.Karimov), sariq tovuslarni (G’.Qodirov), oq oy ostida tuyalarning tinch turishini (F.Ahmadaliev) kutilmagan, zid ranglarda qachon ko‘rish mumkin edi.

## XULOSA VA MUNOZARA

Mustaqillik sharofati bilan tasviriy sanatdagi badiiy uslubiy jarayon yangi ko‘rinishlarga ega bo‘ldi va boyidi. Umuman olganda, O‘zbekistonning milliy san’ati, jahoning istalgan hududidagi davlatlar san’ati orasida mahalliy ham, avangard ham bo‘limgan holda namoyon bo‘ldi. Shunday qilib aytish lozimki, mamlakatimiz tasviriy san`ati o‘zining Sharqona va mentalitet xususiyatlariga ko‘ra jahonda alohida o`ringa ega. Yetishib chiqayotgan yangidan yangi qobiliyat sohiblari ushbu an`analarni davom ettirgan holda mamlakatimizning o`zligini yanada kengroq tanitishga xizmat qilishi muqarrar.

## ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. N.Oydinov. Tasviriy san’at tarixi. -T. 2017.
2. Soibov T.Z., Gilmanova N.V., Slugin A.P., Borodina M.R., Tyo A.V. Qalamtasvir, rangtasvir, haykaltaroshlik. -T. 2010.
3. Gilmanova N.V. Rangtasvirda yorug‘lik va rang. –T., 2012.
4. Raxmetov S. Dastgoxda rangtasvir kompozi- siya asoslari. O‘quv qo‘llanma -T . 2017.
5. Gilmanova N. V. Kompozitsiya T. 2014.